



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON SHAHAR KENGASHI QARORI

2023 - yil 28 - yanvar

VI-72-8-7-106-K/23

Kattaqo'rg'on shahar hokimligi

2022-yilda “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” mablag‘lari hisobidan jamoatchilik fikri asosida tanlab olingan loyihalarning ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli Qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli Qarorlari ijrosini ta’minlash va “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” mablag‘lari hisobidan jamoatchilik fikri asosida g‘olib chiqqan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘lar hamda amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on shahar Kengashining oltinchi chaqiriq yetmish ikkinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Shahar hokimligi moliya bo‘limi mudiri (F.Sadriddinov)ning 2022-yilda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘ to‘g‘risidagi hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. **“Fuqarolar tashabbusi”** jamg‘armasi hisobidan 2022-yilda tashabbusli budjetlashtirish natijalari bo‘yicha ma’lumot 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. **“Fuqarolar tashabbusi”** jamg‘armasi hisobidan 2022-yilda fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirilishi yuzasidan ma’lumot 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. **“Fuqarolar tashabbusi”** jamg‘armasi hisobidan 2022-yilda fuqarolar tashabbusi jamg‘armasidan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g‘olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar yuzasidan ma‘lumot 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Kattaqo‘rg‘on shahar Ingichka qo‘rg‘onchasi A.Qahhor mahallasida 2022-yilda Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi hisobidan mahalla aholisini ichimlik suvi bilan ta‘minlash borasida amalga oshirilgan ishlar qoniqarsiz deb hisoblansin.

6. Shahar hokimi o‘rinbosari (J.Axmedov) Ingichka qo‘rg‘onchasi A.Qahhor mahallasida Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi hisobidan ichimlik suvi bilan ta‘minlash loyihasi bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarni hudud deputatlari, mas‘ullar hamda keng jamoatchilikni jalb etgan holda muhokama etsin hamda natijasi bo‘yicha Kengash raisiga qo‘shimcha axborot kiritсин.

7. “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” hisobidan mablag‘ ajratilgan tashkilot rahbarlariga ajratilgan mablag‘lardan foydalanish hamda erishilgan natijalar to‘g‘risida hisobotlarni Kengashga taqdim etib borish vazifasi yuklatilsin.

8. Shahar hokimligi moliya bo‘limi mudiri (F.Sadriddinov), shahar G‘aznachilik bo‘linmasi (A.Abalbayev)larga ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

9. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (S.Gadayev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



G. Alimova

Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on
shahar Kengashining
2023 yil 28 yanvardagi
VI-72-8-7-106-K/23-son
qaroriga
1-ilova

**Kattaqo'rg'on shahrida tashabbusli budjetlashtirish natijalari bo'yicha
MA'LUMOT**

Kattaqo'rg'on shahar

01-yanvar 2023-yil

1-jadval

T/r	Ko'rsatkich nomi	Summa (ming so'm)
1	Yil boshiga qoldiq	836 000,00
2	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga o'tkazilgan mablag'lar*	7 003 600,00
3	Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g'olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar**	7 365 632,00
3.1	Tadbirlarni amalga oshirayotgan pudratchi tashkilotlarga bajarilgan ishlar uchun to'langan mablag'lar	6 560 747,00
3.2	Tadbirlarni moliyalashtirishga ajratilgan, biroq pudratchi tashkilotlarga to'lab berilmagan qoldiq mablag'lar	798 642,00
4	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasidagi qoldiq mablag'lar	473 968,00

T/r	Bajarilgan tadbirlar nomi	Moliyalashtirilgan takliflar soni	ko'rsatkichlar		
			o'lchov birligi	miqdori	sarflangan mablag'lar (ming so'm)
1	Hududiy ichki yo'llar umumiy uzunligi	9	umumiy uzunligi	3,083 km	1 996 746,5
2	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash	4	soni	4	659 137,9
3	Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	6	soni	6	806 416,3
4	Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash soni	2	soni	2	616 897,5
5	Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash soni	1	soni	1	25 500,0
6	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash umumiy	4	umumiy uzunligi	4,1 km	1 141 247,8
7	Ko'cha chiroqlarini o'rnatish		chiroqlar soni		
8	Obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish		tadbirlar soni		
9	Boshqa tadbirlar	8	soni	8	1 314 801,0
	JAMI	34		x	6 560 747,00

Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on shahar
Kengashining
2023 yil 28 yanvardagi
VI-72-8-7-106-K/23-son qaroriga
2-ilova

Kattaqo'rg'on shahrida fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirilishi yuzasidan
MA'LUMOT

Kattaqo'rg'on shahar

01-yanvar 2023-yil

mln so'mda

T/r	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga yo'naltirilishi lozim bo'lgan mablag'lar				Fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga haqiqatda o'tkazilgan mablag'lar	Farqi	Izoh	
		1-chorak	2-chorak	3-chorak	4-chorak				
1	Tuman (shahar) budjetining tasdiqlangan umumiy xarajatlarining 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mablag'lar	5456,2				5456,2	0,0		
2	Shahar budjetining qo'shimcha manbalarining 30 foizi miqdorida ajratiladigan mablag'lar	568,0	530,4	449,0	0,0	1547,4	0		
2.1	Shu jumladan:	erkin qoldiq mablag'lari	568,0			568,0	0,0		
2.2		daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi		530,4	449,0		979,4	0,0	
2.3		davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar						0,0	
2.4		elektron savdo maydonchasida yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni sotishdan tushgan mablag'lar						0,0	
2.5		budjetdan ajratiladigan mablag'lar kamaytirilishi natijasida bo'shab qolgan mablag'lar						0,0	
		Jami ajratiladigan mablag'lar	6024,2	1060,8	898,0	0,0	7003,6	0,0	

Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on shahar
Kengashining
2023 yil 28 yanvardagi
VI-72-8-7-106-K/23-son qaroriga
3-ilova

Kattaqo'rg'on shahrida fuqarolar tashabbusi jamg'armasidan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g'olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar yuzasidan
MA'LUMOT

Kattaqo'rg'on shahar

01-yanvar 2023-yil

T/r	Tadbirning xos raqami (ID)	Jami to'plangan ovozlarning soni	shundan			Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)	Tadbirning moliyalashtirilishi (ming so'm)					MFY nomi	
			onlayn ovozlari	oflayn ovozlari	SMS orqali		Tadbirni moliyalashtirish hisobvaraqi	Tadbirning fuqaro tomonidan kiritilgan dastlabki qiymati	Tadbirni amalga oshirish qiymati*	Ajratilgan mablag'lar	Bajarilgan ishlar uchun to'lab berilgan mablag'lar		Qoldiq mablag'lar
1	1080400044	683	1		682	Shahar kutubxonasi kitob fondini ko'paytirish uchun badiiy, tarixiy, ertaklar, fantastik va h.k yo'nalishlarda mingta kitob olish uchun	401722860184067082102134001	30 000,0	25 500,0	25 500,0	25 500,0	4 500	G'arb Machit MFY
2	1080400008	627	4		623	Kattaqo'rg'on shahar Ingichka qo'rg'oni I.Shoir MFY Turkiston ko'chasida joylashgan 21 MTM binosini ta'mirlash	401722860184067091100251004	300 000,0	299 500,0	299 500,0	299 500,0	500	Islom Shoir MFY
3	1080400003	541			541	14-maktabga 20 - dona ovoqli kamera sotib olish va o'rnatish uchun, ularga ketadigan simlari	401722860184067092100075001	40 000,0	39 600,0	39 600,0	39 600,0	400	Go'zalkent MFY
4	1080400089	453	6		447	Kattaqo'rg'on shahridagi 13-sonli maktabni joriy ta'mirlash	401722860184067092100075004	297 000,0	294 030,0	294 030,0	294 030,0	2 970	Ziyolilar MFY
5	1080400068	356	1		355	Yermachit mahallasi binosini qayta qurish	401722860184067011204018003	500 000,0	495 242,2	495 242,2	495 242,2	4 758	Yermachit MFY
6	1080400035	301	3		298	Mehrjon mahallasi O.Miriy ko'chasining 520 metr joyini asfalt qilish	401722860184067045201110009	352 493,0	352 493,0	352 493,0	352 493,0	-	Mehrjon MFY
7	1080400021	289	2		287	5-maktabning ta'mirlanayotgan faollar zali, kutubxonasini joriy ta'mirlanishini yakuniga yetkazish	401722860184067092100075002	300 000,0	296 007,9	296 007,9	296 007,9	3 992	Baxoriston MFY
8	1080400025	259	14		245	Kattaqo'rg'on shahridagi 17-sonli Ixtisoslashtirilgan Davlat umumta'lim maktabining tom qismini joriy ta'mirlash	401722860184067092100075003	60 000,0	29 500,0	29 500,0	29 500,0	30 500	Amir Temur MFY
9	1080400026	222			222	Yermachit mahallasining Binokor o'tar ko'chasining 314 metr joyini asfaltlashtirish	401722860184067045201110010	256 000,0	254 925,1	248 682,1	248 682,1	7 318	Yermachit MFY
10	1080400012	222	1		221	Kattaqo'rg'on shahar 4-maktabgacha ta'lim tashkilotining qo'shimcha binolarini joriy ta'mirlash	401722860184067091100251005	100 000,0	98 000,0	98 000,0	98 000,0	2 000	Haydarchaman MFY
11	1080400067	179	5		174	Kattaqo'rg'on shahar tibbiyot birlashmasi kuz kasalliklar bo'limiga tibbiy anjomlar xarid qilish	401722860184067073101054001	250 000,0	247 000,0	247 000,0	247 000,0	3 000	Qo'shhovuz MFY
12	1080400169	109			109	22-MTT binosini joriy ta'mirlash	401722860184067091100251006	30 000,0	29 000,0	29 000,0	29 000,0	1 000	G'arb Machit MFY

13	1080400038	107	10		97	Chinobod MFYdagi ichimlik suvi 2 km.lik tarmog'ini ta'mirlash	401722860184067011204018006	300 000,0	293 869,3	293 869,3	293 869,3	6 131	Chinobod MFY
14	1080400036	107			107	Zarafshon mahallasi Qoradaryo o'tar ko'chasi 128 metr joyini asfaltlashtirish	401722860184067045201110011	62 513,0	62 192,3	62 192,3	62 192,3	321	Zarafshon MFY
15	1080400040	93			93	Damariq mahallasi Xolis ko'chasining 105 metr joyini asfalt qilish	401722860184067045201110012	71 865,0	71 116,4	71 116,4	71 116,4	749	Damariq MFY
16	1080400159	90			90	19 MTT kanalizatsiya tarmog'ini joriy ta'mirlash	401722860184067091100251007	70 000,0	69 626,3	69 626,3	69 626,3	374	Navbahor MFY
17	1080400039	89			89	Damariq mahallasi Tegirmonboshi ko'chasining 500 metr joyini asfaltlashtirish	401722860184067045201110013	291 050,0	288 949,6	288 949,6	288 949,6	2 100	Damariq MFY
18	1080400028	82			82	Nurafshon mahallasi Siplon ko'chasining 620 metr joyini asfaltlashtirish	401722860184067045201110014	437 500,0	433 921,2	433 921,2	433 921,2	3 579	Nurafshon MFY
19	1080400082	74	2		72	Workout sport maydonchasi qurish.	401722860184067011204018004	25 000,0	24 817,7	24 817,7	24 817,7	182	Ziyolilar MFY
20	1080400194	70	8		62	Oq Oltin MFY Iftixor ko'chasini asfalt qilish	401722860184067045201110015	117 000,0	74 196,9	74 196,9	74 196,9	42 803	Oq Oltin MFY
21	1080400158	70			70	18-MTTni bolalar mebel jihozlari bilan ta'minlash	401722860184067091100251008	11 000,0	10 290,0	10 290,0	10 290,0	710	Yermachit MFY
22	1080400144	70			70	Yer Machit MFYda 1-tipdagi yoshlar kompleksini qurish	401722860184067011204018005	25 000,0	24 817,6	24 817,6	24 817,6	182	Yermachit MFY
23	1080400034	58	3		55	Chinobod MFY Ulug'bek Barnoyev o'tar ko'chasining 384 metr joyini asfaltlashtirish	401722860184067045201110016	237 226,0	236 036,0	236 036,0	236 036,0	1 190	Chinobod MFY
24	1080600019	729			729	A.Qaxxor MFYdagi 12 ta ko'p qavatli uylarni toza ichimlik suvi bilan ta'minlash hamda oqova suvini umumiy tarmoqqa ulash. Ko'p qavatli uylar oldiga tortilgan yangi suv hamda oqova tarmog'idan ko'p qavatli uylarning xar bir xonadoniga yetkazish maqsadida oqova tizimi, suv quvurlar tortish va nasos o'rnatish.	401722860184067011204018007	360 000,0	360 000,0	360 000,0	350 000,0	-	A.Qaxxor MFY
25	1080600031	506			506	Mahalla hududidagi Obi Hayot, A.Navoiy ko'chalarini doimiy ichimlik suvi tarmoqlariga ulash	401722860184067011204018008	400 000,0	400 000,0	400 000,0	390 145,8	-	Qo'shhovuz MFY
26	1080600070	470			470	Zarifobod MFY, Bog' o'tar ko'chasiga oqava (kanalizatsiya) tizimini o'tkazish	401722860184067011204018009	100 000,0	100 000,0	100 000,0	97 454,1	-	Zarifobod MFY
27	1080600071	440			440	Kattaqo'rg'on shahar Noqis MFY O'zbekiston ko'chasi 65 A hamda 65 B ko'p qavatli uylarning suv ta'minotini bilan doimiy ta'minlash uchun suv bashnyasini kapital ta'mirlash.	401722860184067011204018010	200 000,0	110 000,0	110 000,0	107 232,7	90 000	Noqis MFY
28	1080600115	378			378	Kattaqo'rg'on shahar Zomin MFY binosini zamonaviy ko'rinishda qaytadan rekonstruksiya qilish	401722860184067011402259001	450 000,0	470 000,0	470 000,0	351 820,6	-20 000	Zomin MFY
29	1080600075	291			291	Kattaqo'rg'on shahar G'arb-Majit MFY, Davlatobod ko'chasi 138 Dom orqasidagi bo'sh turgan joyda Bolalar maydonchasi qurish	401722860184067011402259002	50 000,0	35 000,0	35 000,0	34 994,8	15 000	G'arb Machit MFY
30	1080600066	252			252	Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on shahar Baland Chordara mfy Sh Odil ko'chasini asfalt 400 metr	401722860184067045201110017	275 000,0	230 000,0	230 000,0	229 159,0	45 000	Baland Chordara MFY
31	1080600085	235			235	Tibbiyot birlashmasiga Videogastroskop apparatini sotib olish	401722860184067073101054002	350 000,0	370 000,0	370 000,0	369 897,5	-20 000	Zarifobod MFY

32	1080600032	168			168	Kattaqo'rg'on shahar Ingichka qo'rg'oni I.Shoir MFY Turkiston ko'chasida joylashgan 21 MTM hududida bolalar qamrovini oshirish maqsadida qo'shimcha binoni issiqlik tizimi va irrigatsiya tizimini ta'mirlash	401722860184067091100251014	400 000,0	300 000,0	300 000,0	284 022,4	100 000	Islom Shoir MFY
33	1080600014	167			167	Chordara MFY Mahalla qayta qurish	401722860184067011402259003	700 000,0	470 000,0	470 000,0	151 129,5	230 000	Chordara MFY
34	1080600012	151			151	Qoriravot MFY Mahalla binosini zamonaviy qayta qurish	401722860184067011402259004	800 000,0	470 000,0	470 000,0	150 502,1	330 000	Qoriravot MFY
Jami:								8 248 647	7 365 632	7 359 389	6 560 747	889 259	x